

QURILISH KORXONALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL MODEL VA EMPIRIK NATIJALARI

Toshkent arxitektura qurilish universiteti
tayanch doktoranti **Arifdjanova Zilola Dilshadovna**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida, shu jumladan qurilish sohasida ham keng qamrovli institutsional hamda tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan yangi qurilish siyosati mamlakat infratuzilmasini yangilash, aholi yashash muhitini yaxshilash, investitsiya jarayonlarini faollashtirish hamda raqobatbardosh ishlab chiqarish muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu jarayonda ustuvor vazifalardan biri sifatida qurilish korxonalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, uni zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar hamda raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qurilish tarmog'i ko'p omilli, kapital sig'imi yuqori va tashqi muhit o'zgarishlariga sezgir sohalar qatoriga kiradi, unda boshqaruv samaradorligi ichki va tashqi omillar majmui ta'sirida shakllanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlash, moliyaviy barqarorligini kuchaytirish hamda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun boshqaruv faoliyatini ilmiy asoslangan usullar orqali modellashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Korxonalarda kechayotgan iqtisodiy jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab tizimni tashkil etgani sababli, boshqaruv samaradorligini yagona ko'rsatkich asosida baholash to'liq tasavvur bermaydi. Aksincha, rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi, ish haqi fondi, kapital qo'yilmalar hajmi, shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi, "yashil" texnologiyalardan foydalanish ko'lami hamda BIM (Building Information Modeling) texnologiyalarini joriy etish darajasi kabi ko'plab omillar yig'indisi korxonaning rivojlanish sur'atlarini belgilaydi.

Mazkur sharoitda iqtisodiy tahlil va boshqaruv amaliyotida ko'p omilli modellardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Bunday modellar turli omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash, ularning nisbiy ta'sir kuchini baholash hamda natijaviy

ko'rsatkichlar dinamikasini prognoz qilish imkoniyatini yaratadi. Ushbu yondashuv orqali korxona rahbariyati resurslardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishi, foyda hajmini oshirish yo'llarini belgilashi va risklarni pasaytirishga qaratilgan asoslangan qarorlar qabul qilishi mumkin. Ayniqsa, qurilish sohasida ko'p omilli tahlil tarmoq rivojlanish tendensiyalarini ochib berish, ishlab chiqarish hajmlari va moliyaviy oqimlarni ilmiy asosda bashorat qilishda muhim analitik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, ko'p omilli tahlil asosida ishlab chiqilgan boshqaruv modeli korxona faoliyatining turli tomonlarini yagona integral ko'rsatkich orqali aks ettirish imkonini beradi. Bunday integral yondashuv korxona holatini kompleks baholash, barqaror rivojlanish nuqtalarini belgilash hamda resurslardan foydalanishning optimal yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, integral indekslar yordamida boshqaruv samaradorligining xavf darajalari ham tasniflanadi, ya'ni "yuqori", "o'rtacha", "xavfli" va "juda xavfli" kabi toifalar asosida muammoli sohalar aniqlanadi. Bu esa strategik qarorlar qabul qilish, moliyaviy rejalashtirish hamda inson kapitalini boshqarishda muhim tahliliy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalari qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini baholashga qaratilgan yangi integral yondashuvni ilgari suradi. Ushbu yondashuv korxonalar iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirish, raqamli va "yashil" texnologiyalarni qo'llash orqali innovatsion rivojlanishni ta'minlash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yuksaltirish imkonini beradi. Ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish natijasida nafaqat alohida korxonalar miqyosida, balki butun tarmoq darajasida ham boshqaruv tizimlarining sifati oshishi, iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanishi va investitsiyaviy jozibadorlikning kuchayishiga erishish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish trend modellari hamda vaqt qatorlari usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida 2020–2024 yillar davomida qurilish korxonalarining ayrim boshqaruv samaradorligi indikatorlari bo'yicha o'zgarish tendensiyalari o'rganildi (1 – jadval).

1 – jadval

“Trest – 12” AJ qurilish korxonasi faoliyati boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omil ko’rsatkichlari¹

Ko’rsatkichlar	O’lchov birligi	Yillar					O’rtacha manfaatdorlik koeffitsienti
		2020	2021	2022	2023	2024	
Foyda marjasi (sof foyda/sof tushum*100)	%	2,90	2,50	3,90	2,30	1,20	0,87
O’rtacha ish haqi (jami fond/xodimlar soni)	mln.so‘m /oy	2,9	3,3	5,8	6,5	7,5	1,43
Mehnat unumdorligi (sof tushum/kishi)	mlrd.so‘m/kishi	0,17	0,21	0,23	0,21	0,37	1,31
Kapital qo’yilmalar	mlrd.so‘m	36,5	44	39,6	43	56,5	1,13
Shartnomalarni o‘z vaqtida bajarish	%	90–91	91–92	92–93	94–95	95–97	1,02
“Yashil” texnologiyalar indeksi	2020 yil bazis	100	115	120	130	140	1,09
BIM/IoT joriy etish qamrovi	% loyihalar ga	15	20	25	30	35–40	1,24

Yuqorida keltirilgan ta’sir etuvchi omillar tahlilini manfaatdorlik indeksini aniqlash formulasi orqali tahlil qilish mumkin bo‘lib, mazkur 1 – jadvalda qurilish korxonasi boshqaruv samaradorligi ko’rsatkichlarining gorizont talhili amalga oshirildi. Tahlil

¹ Tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


natijalari ushbu jadvalda batafsil keltirilgan bo‘lib ushbu ko‘rsatkichlar doirasida qurilish korxonasining boshqaruv samaradorligi integral koeffitsientini aniqlash imkoni yaratiladi.

Ekonometrik modeldagi natijaviy omil sifatida tanlangan qurilish korxonalari boshqaruv samaradorligini koeffitsienti (Y) ga ta’sir etuvchi omillar sifatida foydalilik darajasi (x_1), o‘rtacha ish haqi (x_2), mehnat unumdorligi (x_3), kapital qo‘yilmalar (x_4), shartnomalarni o‘z vaqtida bajarish darajasi (x_5), “yashil” texnologiyalar indeksi (x_6) va BIM texnologiyalarini joriy etish qamrovi (x_7) kabi ko‘rsatkichlar tanlab olindi.

Aniqlangan ma’lumotlardan foydalangan holda qurilish korxonalari boshqaruv samaradorliginiga ta’sir etuvchi omillar ta’sirida o‘zgarishini ko‘p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko‘ra ushbu jarayonni ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamasi tuzildi.

$$y = 0,053 \cdot x_2 + 0,277 \cdot x_3 - 2,433 \cdot x_4 - 1,178 \cdot x_5 - 0,521 \cdot x_6 + 2,555 \cdot x_7 + 10137,56$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2025 – 2029 yillarda qurilish korxonalari boshqaruv samaradorligi ko‘rsatkichlari hamda ularni hisoblash uchun eng qulay modellar ro‘yxati keltirildi (2.15 – jadval).



4 – rasm. O‘zbekiston qurilish tarmog‘ida 2020 – 2035 yillardagi islohotlar ta’siri va barqaror rivojlanish tendensiyalarining prognoz ko‘rsatkichlari

Yuqoridagi omilli bog‘lanishlar asosida biz qurilish korxonalarining rivojlanishida eng muhim deb topilgan ko‘rsatkichlarning natijaviy ko‘rsatkich hisoblangan qurilish

korxonalari boshqaruv samaradorligi sifatida ko'rsatilgan ko'rsatkichga boshqa omillarning ta'siri asosidagi rivojlanish ssenariysini ishlab chiqdik.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki qurilish korxonalarining boshqaruv samaradorligini integral baholashning ahamiyati muhim bo'lib, unda integral baholash asosida korxonaning barcha aspektlarini hisobga oladi, bu esa korxonaning umumiy holatini va rivojlanish istiqbollarini aniqroq baholash va boshqarish imkonini beradi. Bundan tashqari korxonada qaysi sohalar qo'shimcha mablag' talab etishini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga integral baholash orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirishi va bozor sharoitlariga moslashishi va strategiyalarini tuzishda yordam beradi.